

MATEMATIKA FANIDAN MAVZULARNI KASBGA YO`NALTIRIB O`QITISHNING TA`LIM BERISH SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMYATI

Shukurov Xursan Gadoyevich, Norova Intizor Haqberdiyevna

Matematika fani o`qituvchilari, BuxMTI akademik litseyi

Annotatsiya: Maqolada matematika fanini o`qitishning kasbiy yo`naltirilishi muammosini hal etishda tayanch va fanga oid kompetensiyalarning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so`zlar: ekologik, matematika, texnika, mehnat, kompetensiya, texnologiya, trigonometrik funksiya.

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida, matematika fani izchil rivojlanib borayotgan shu asrimizda biz yangiliklar yaratishimiz kerak bo`ladi. Shu munosabat bilan o`quv tarbiya jarayonining darajasini ancha oshirish zarurati tug`ildi, yoshlarga umumkasbiy fanlarni o`qitishda o`quvchilarning fan asoslarini chuqur egallashini ta`minlash, ularga kasbga e`tiqod, mehnatsevarlik, axloqiy soflik kabi xislatlarni shakllantirish, Vatanimizga muhabbat va uning kelajagi uchun o`zining xissasini qo`shishga tayyor turadiga va komil inson ruhida tarbiyalashga qaratilgan bo`lib. Shu bilan birga mavzuning insoniyat xayotidagi rolini o`quvchilarga yetkazishdan iborat. Matematikani predmet sifatida o`qitishda kasbiy yo`naltirish o`qitishning maqsadlaridan biri sifatida ham, bilimlar sifatini oshirishning muhim faktori sifatida ham xizmat qiladi. Matematikani kasbiy yo`naltirib o`qitish faqatgina kasbiy chaqqonlikni oshiribgina qolmay, shu bilan birga o`quvchilarning ma`naviy kuchlarini va qobiliyatlarini ham rivojlantirishga, ularda ilmiy dunyoqarashni, ijobiy munosabatda bo`lish kabi fazilatlarni shakllantirishga ham imkon beradi. Ma`lumki, fan va texnika taraqqiyoti ta`lim va tarbiyaning mazmuni va metodlariga bevosita ta`sir etadigan quyidagi bir qator belgilar bilan xarakterlanadi:

- fan, texnika va ishlab chiqarishdagi o`zgarishlarning birga qo`shilib ketishi natijasida fanning bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylanib ketishi;
- ishlab chiqarish kuchlari hamma elementlarini sifat jihatdan qaytadan qurish;
- mehnat xarakteri va mazmunining o`zgarishi, unda ijodiy elementlar rolining o`shishi;
- ishchilar umumiy va maxsus ta`limi, hamda madaniyatining o`shish darajasi;
- ekologik muammolarning paydo bo`lishi va shunga bog`liq bo`lgan boshqa masalalar.

Kasbiy yo`naltirib o`qitish ham albatta didaktik tamoyillarga tayanadi. Matematikani kasbiy yo`naltirib o`qitish asosan “ko`rgazmali” bo`ladi, chunki uning manbai texnika ob`ektlari hisoblanadi. Shu tufayli, matematika o`qitishda politexnik

tamoyilni ketma-ket amalga oshirish ko`rgazmalilik tamoyili vositalarini boyitish bilan birga matematikadan o`quv jihozlariga aniq talablar qo`yadi. Kasbiy yo`naltirib o`qitish insonning mehnat va ishlab chiqarish – texnik faoliyatida shakllanadi va aniq ko`rinishda namoyon bo`ladi. Shu sababli, o`qitishni ishlab chiqarish va o`quvchilarning mehnati bilan bog`lanishi ular tomonidan bilimlarni o`zlashtirishning zaruriy sharti bo`lib xizmat qiladi. O`quvchilarni kasbga tayyorlash fan asoslarini, mehnat ta`limini o`rganish jarayonida, texnika, texnologiya va ijtimoiy – foydali, ishlab chiqarish mehnati bo`yicha sinfdan tashqari mashg`ulotlarda amalga oshiriladi.

Matematikani o`qitishning kasbiy yo`naltirilishi muammosi bugungi kunda ayniqsa, dolzarb hisoblanadi, chunki hozirgi paytda rivojlanish kirib bormagan sohaning o`zi yo`q. Bunda uning mazmun va jarayonual tomoni farqlanadi. Mazmun tomoni esa o`qitishning metodlariga va shakllariga qo`yilgan talablar hisoblanadi. Matematikani o`rganishda qarab chiqilayotgan qonuniyatlar xalq xo`jaligining muhim sohalaridagi texnik qo`llanishlarni ham kiritish kerakligini talab etadi. Bu esa matematika kursining nazariy va amaliy qismlarini aniqlab olishga imkon beradi. O`rta umumta`lim maktablarini tugatgan o`quvchilarning bir qismi ishlab chiqarish sohasiga boradi. Shu munosabat bilan ular mehnat tarbiyasini olgan bo`lishlari zarur. Mehnat tarbiyasi masalasini hal etishda matematika o`qituvchisi ham ma`lum darajada ishtirok etadi. Mehnat tarbiyasining maqsadi yoshlarni hamkasblarga, mehnat jamoalarga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash, jamiyat uchun zarur va foydali ishlarni bajarishga tayyorlash, mehnat natijasiga javobgarlik hissini, jamoa qiziqishini o`zining qiziqishlaridan ustun qo`yishga, mehnatga ijodiy munosabatda bo`lish hislariga erishishga yoshligidan tayyorlab borishdan iborat. Agar, o`qitish ishlab chiqarish mehnati bilan qo`shib olib borilsa, yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djoyayev M. Fizika o`qitish metodikasi (Umumiy masalalar). – Toshkent: Abu Matbuot Konsalt, 2015. – 280 b.
2. Алихонов С. Математика ўқитиш методикаси.- Тошкент-2011.-303 б.
3. Yunusova D. Matematikani o`qitishning zamonaviy texnologiyalari. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – 200 b.
4. Yunusova D.I. Ta`lim texnologiyalari asosida matematik ta`limni tashkil etish. T., “Universitet”, 2005.- 131 b.